

i.f.n., dots. Shavkat Xusainov

Raqamli iqtisodiyot va agrotexnologiyalar universiteti

AQSH AKSIYADORLIK JAMIYATLARI MOLIVASINING XUSUSIYATLARI HAMDA SAMARADORLIGI VA BARQARORLIGI

Annotatsiya: Ushbu maqolada xorijiy aksiyadorlik jamiyatlarining molivasini tashkil etishdagi o'ziga xos xususiyatlar tahlil qilingan. Mamlakatlarning iqtisodiy, huquqiy va korporativ boshqaruv tizimlari ushbu jamiyatlarning molivaviy strategiyalariga qanday ta'sir ko'rsatishi ko'rsatib o'tilgan. AQSh aksiyadorlik jamiyatlari misolida molivaviy amaliyotlarning o'ziga xos jihatlari, shuningdek, kapital bozorlari va yuridik muhitning rolini o'rganish orqali samaradorlik va barqarorlikni ta'minlash bo'yicha xulosalar chiqarilgan. Shuningdek, maqolada xorijiy tajribani O'zbekiston aksiyadorlik jamiyatlariga joriy etish yo'nalishlari muhokama qilingan.

Kalit so'zlar: aksiyadorlik jamiyatlari, molivaviy strategiya, kapital bozorlari, innovatsion texnologiyalar, korporativ boshqaruv, yuridik muhit, global bozor

FEATURES OF THE FINANCIAL SYSTEM OF U.S. JOINT-STOCK COMPANIES AND THEIR EFFICIENCY AND STABILITY

Abstract: This article analyzes the distinctive features of financial organization in foreign joint-stock companies. It highlights how countries' economic, legal, and corporate governance systems influence the financial strategies of these companies. Using U.S. joint-stock companies as an example, the study examines the specific aspects of financial practices and the role of capital markets and the legal environment in ensuring efficiency and stability. The article also discusses the application of foreign experience to joint-stock companies in Uzbekistan.

Keywords: joint-stock companies, financial strategy, capital markets, innovative technologies, corporate governance, legal environment, global market.

Kirish

Xorijiy aksiyadorlik jamiyatlari molivasining xususiyatlari mamlakatlarining iqtisodiy, huquqiy, va korporativ boshqaruv tizimlariga bog'liq bo'ladi. Bunday jamiyatlarning molivaviy strategiyasi va amaliyotida rivojlangan mamlakatlar va mintaqalarning o'ziga xos xususiyatlari yaqqol namoyon bo'ladi. AQSh, Yevropa va Osiyo davlatlari misolida ushbu xususiyatlarni chuqur tahlil qilish ularning samaradorligi va barqarorligini tushunishga imkon beradi. Garvard universiteti

tadqiqotlari ko'rsatadiki, Osiyodagi aksiyadorlik jamiyatlari innovatsion texnologiyalardan foydalanib moliyaviy modellarni rivojlantirmoqda[1]. Masalan, Xitoyda raqamli iqtisodiyot hamda blokcheyn va sun'iy intellekt kabi texnologiyalarni qo'llash keng tarqalgan.

Qayd etish kerakki, har bir mamlakatning iqtisodiy muhiti aksiyadorlik jamiyatlari moliyasida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. AQShdagi aksiyadorlik jamiyatlari moliyaviy faoliyati asosan bozor mexanizmlari orqali shakllanadi. Ushbu davlatda kapital bozorlari yuqori darajada rivojlangan bo'lib, jamiyatlarga moliyaviy resurslarni tez va samarali jalb qilish imkoniyatini yaratadi. Koreya Respublikasi va Yaponiya kabi Osiyo davlatlarida esa uzoq muddatli rivojlanish strategiyalari ustuvor bo'lib, bu joylarda "chaebol" va "keiretsu" tizimlari orqali vertikal integratsiya yuqori darajada amalga oshiriladi.

Biroq, AQSh moliyaviy tizimi bozorga yo'naltirilganligi bilan ajralib turadi. Bunday tizimda aksiyadorlik jamiyatlari asosiy moliyaviy manbalarini kapital bozorlari orqali jalb qiladi. Nyu-York fond birjasi (NYSE), NASDAQ va boshqa yirik moliyaviy institutlar kompaniyalarning moliyaviy faoliyatida hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Ayniqsa, bu yerda huquqiy tizim va moliya tizimlarning o'zaro bog'liqligi alohida o'rin tutadi. Chunki huquqiy tizim aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatining barqarorligi va shaffofligini ta'minlaydigan muhim omildir. Common Law huquq tizimiga asoslangan mamlakatlarda (masalan, AQSh va Buyuk Britaniya) aksiyadorlar huquqlari yuqori darajada himoya qilinadi, bu esa ularning sarmoya kiritishga bo'lgan ishonchini oshiradi[2]. Jahon bankining 2022 yilgi hisobotiga ko'ra, huquqiy muhit korporativ moliyaga ijobiy ta'sir o'tkazib, aksiyadorlarning manfaatlarini himoya qiladi[3].

Xorijiy aksiyadorlik jamiyatlari moliyasining xususiyatlarini tushunish ularning samaradorligi va barqarorligini ta'minlash uchun muhim ahamiyatga ega. Mamlakatning iqtisodiy, huquqiy va korporativ madaniyatiga asoslangan tizimli yondashuv jamiyatlarning global bozorda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishiga xizmat qiladi. Shu sababli, xorijiy tajribani chuqur tahlil qilish va uning o'zbekistonlik aksiyadorlik jamiyatlari uchun mos yo'nalishlarini joriy etish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

AQShda aksiyadorlik jamiyatlarida kapitallashtirish darajasi va uning moliyaviy bozorlar ta'siriga baho berib, Garvard universiteti professori Robert Shiller (*Robert J. Shiller*) "AQShda moliyaviy bozorlar kompaniyalarning qiymatini real bozor talablariga muvofiq belgilaydi, bu esa iqtisodiyotda shaffoflik va samaradorlikni ta'minlaydi" deb fikr bildiradi[4]. Robert Shillerning *Irrational*

Exuberance asarida kapitallashtirish darajasi va moliyaviy bozorlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik keng yoritilgan. Bozor kapitallashtirishi darajasi kompaniyalarning aksiyalari umumiy qiymatini aks ettiradi va bu bozordagi asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlardan biridir. Shillerning nazariyasiga ko'ra, kapitallashtirish ko'rsatkichlari faqat bozorning tuzilmaviy holatiga emas, balki bozor ishtirokchilarining psixologiyasiga ham bog'liq. R.Shillerning ta'kidlashicha "kapitallashtirish darajasi bozor ishtirokchilarining xulq-atvorini shakllantiradi. Bozor ishtirokchilaridagi optimizm yoki pessimizm holati aktivlarning qiymatiga ta'sir qiladi"[4]. Kapitallashtirish darajasi va moliyaviy bozorlar o'rtasidagi bog'liqlikni tushunish uchun 2008 yilgi moliyaviy inqirozni misol sifatida keltirish mumkin. Jahon bank tizimida yuzaga kelgan muammolar va moliyaviy pufakchalar (bubbles)ning yorilishi natijasida ko'plab kompaniyalarning kapitallashuvi keskin pasaydi. Shu orqali, R.Shiller o'z yondoshuvi bilan moliyaviy inqirozlarda bozor qatnashchilari xulq-atvorining irratsionallikka moyilligi muhim rol o'ynaganini ko'rsatdi.

Jorj Akerlof (*George A. Akerlof*) tadqiqotlarida "Institutsional investorlar ishtirokidagi moliyaviy bozorlar kompaniyalarning resurslarni samarali taqsimlashiga yordam beradi"[5] deb hisoblaydi. Uning fikricha, institutsional investorlar, masalan, pensiya fondlari va sug'urta kompaniyalari, AQSh moliyaviy bozorining katta ulushini egallaydi. Ular bozorga yirik sarmoya kiritib, kompaniyalar faoliyatini barqaror qo'llab-quvvatlaydi.

V.Graxem va D.Dodd (*Graham, B., & Dodd, D.L.*) institutsional investorlar moliya bozorlarida muhim rol ajratib, odatda, ularni katta miqdordagi kapitalga ega bo'lgan, uzoq muddatli investitsiyalarni amalga oshiradigan tashkilot sifatida tadqiq etadilar. Ushbu investorlar orasida pensiya fondlari, ishonch kompaniyalari, hedge fondlar va davlat investitsiya agentliklari kabi tashkilotlar bor. Institutsional investorlar ko'pincha keng taralgan portfellarni va yuqoridagi texnik talablarga muvofiq investitsiyalar strategiyasini amalga oshiradi. Ular shuningdek, kapital bozorlaridagi likvidlikni ta'minlashda ham muhim rol o'ynaydi, chunki ularning savdolarining katta hajmlari bozordagi narxlarning barqarorligini qo'llab-quvvatlaydi[6].

Shuningdek, J.Bojl (*Bogle, J.C.*) institutsional investorlar bozorning narx shakllanishiga ta'sir qilishi ta'kidlab, investorlar o'z strategiyalari orqali bozordagi narxlarning samarali bo'lishini va barqarorligini ta'minlaydilar - deb hisoblaydilar[7]. Ko'pincha, investorning savdolari bozordagi narxlarning izchilligi va taxmin qilingan xolatlar bilan mos kelishiga yordam beradi. Institutsional investorlar o'zining katta portfelli orqali bozorga ta'sir qilish va riskaning samarali taqsimlanishini amalga oshirishga qodir.

Xususan, AQSh bozori moliyaviy innovatsiyalar bilan ham tanilgan. Birja savdosi fondi (ETF), derivativlar va obligatsiyalarning yangi turlari kabi instrumentlar kompaniyalarga moliyaviy manbalarini diversifikatsiya qilish imkoniyatini beradi. Masalan, Kleyton Kristensen (*Clayton M. Christensen*) moliyaviy innovatsiyalar haqida shunday degan edi “Innovatsiyalar nafaqat moliyaviy resurslarni yaxshilaydi, balki bozorni rivojlantirish uchun yangi strategik imkoniyatlar yaratadi”[8].

Ta’kidlash kerakki, AQSh moliyaviy tizimi bozorning shaffof bo’lishiga katta e’tibor qaratadi. Qimmatli qog’ozlar va birja komissiyasi (SEC) jamiyatlar hisobotlarini nazorat qilish orqali ularning samarali va adolatli ishlashini ta’minlaydi. Xususan, Jon Keyns (*John Maynard Keynes*) “shaffof moliyaviy tizim bozor ishtirokchilarining ishonchini mustahkamlaydi va iqtisodiy rivojlanishni ta’minlaydi”[9] kabi fikri moliyaviy shaffoflik ilmiy amaliy jihatdan asoslanganligini ko’rsatadi.

Jensen va Mekling (Jensen, M. C., & Meckling, W. H.) ta’kidlaganidek, “moliyaviy hisobotlar va auditlarning ishonchliligi, kompaniya rahbarlarining aksiyadorlar manfaatlariga muvofiq harakat qilishini ta’minlash uchun muhim bir tekshiruvni amalga oshiradi”[10]. Bu shaffoflik investorlar va kompaniyalar o’rtasida ishonchni shakllantirishda, ayniqsa uzoq muddatli investitsiyalarni e’tiborga olishda muhimdir.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotda tizimli yondashuv, qiyosiy va solishtirma tahlil, umumlashtirish, guruhlashtirish, kompleks baholash, abstrakt-mantiqiy fikrlash kabi usullardan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar

Bugungi kun aksiyadorlik jamiyatlari moliyasida raqamli iqtisodiyotning roli ortib bormoqda. AQShda Apple va Microsoft kabi kompaniyalar raqamli platformalar orqali moliyaviy strategiyalarini takomillashtirgan. Xitoyda esa Alibaba va Tencent kabi kompaniyalar blokcheyn texnologiyasi va sun’iy intellektdan foydalanib, bozorda raqobatbardoshlikni saqlab turibdi.

AQShda aksiyadorlik jamiyatlari mamlakatning bozor iqtisodiyotida muhim o’rin tutadi. Bunday jamiyatlar moliyasining o’ziga xos xususiyatlari bozorning rivojlanganligi, huquqiy tizimning samaradorligi va korporativ boshqaruv madaniyati bilan belgilanadi. AQSh aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy tizimi jahon moliyaviy bozorlarining rivojlanishiga katta ta’sir ko’rsatadi.

Bozor kapitallashuvining yuqori darajasi kompaniyalar uchun keng moliyaviy imkoniyatlar yaratadi. Masalan, 2024-yil holatiga ko’ra NYSE umumiy bozor

kapitallashuvi 25,0 trln. AQSh dollari oshib ketdi. Bu AQSh kompaniyalariga global bozorda raqobat qilish uchun yetarli darajada resurs taqdim etmoqda[11].

Institutsional investorlar bozordagi eng yirik ishtirokchilardan biridir, chunki ularning operatsiyalari ham moliya bozori, ham kapital bozorida katta ta'sir ko'rsatadi. Buning natijasida, ularning investitsiyalari moliyaviy tahlilga va strategiyaga tayangan holda, bozorning umumiy holatiga muhim ta'sir ko'rsatadi. Ular asosan portfelga ko'p turdagi aktivlarni (aksiya, obligatsiyalar, investitsion fondlar va boshqalar) kiritishga intiladi, bu esa diversifikatsiya va riskdan himoyalaniшни ta'minlaydi.

1-jadval

AQShdagi institutsional investorlarning so'nggi besh yillik (2018–2022) moliyaviy bozorlardagi asosiy ko'rsatkichlari[11]

Yil	Jami boshqaruvdagi aktivlar (trln. AQSh dollari)	Pensiya fondlari ulushi (%)	Investitsiya jamg'armalari ulushi (%)	Sug'urta kompaniyalari ulushi (%)
2018	63,5	39	31	20
2019	67,2	38	32	20
2020	69,8	40	30	20
2021	72,3	41	29	19
2022	70,0	40	30	20

1-jadvalda AQShda institutsional investorlar moliya bozorlarida katta ahamiyatga ega bo'lib, ularning roli so'nggi yillarda yanada mustahkamlanganligini ko'rish mumkin. 2021 yilda jami boshqaruvdagi aktivlar hajmi 72,3 trillion AQSh dollariga yetib, eng yuqori darajani qayd etdi. Bu asosan moliya bozorlaridagi ijobiy tendensiyalar va aktivlarning qiymati oshishi bilan izohlanadi. Bunday ko'rsatkichlar institutsional investorlarning moliya bozorlaridagi strategik rolini namoyon etadi.

Institutsional investorlar orasida pensiya fondlari yetakchilikni qo'lga kiritgan. Ular boshqarilayotgan aktivlarning eng katta ulushiga (40–41%) ega bo'lib, uzoq muddatli investitsiya strategiyalarida muhim ahamiyat kasb etadi. Bu fondlar moliya bozorlari barqarorligini ta'minlashda strategik rol o'ynaydi.

Investitsiya jamg'armalari va ETFlar (Exchange-Traded Fund - Birja savdosi jamg'armasi) ham yirik ulushga ega bo'lib, umumiy aktivlarning 30% atrofini tashkil etadi. Ular institutsional va chakana investorlar o'rtasida ko'prik vazifasini bajarib, bozorga kirishni yengillashtiradi va moliyaviy manbalarning diversifikatsiyasini ta'minlaydi.

Sug'urta kompaniyalari esa 20% barqaror ulushga ega bo'lib, asosan uzoq muddatli va barqaror investitsiya siyosatini olib boradi. Ularning aktivlari kam tavakkalchilikli bo'lib, sug'urta majburiyatlarini qoplash va moliyaviy tizim barqarorligini saqlash uchun yo'naltiriladi. Bu raqamlar institutsional investorlarning moliya bozorlari mexanizmlarida qanday qilib samarali ishtirok etayotganini ko'rsatadi[12]. Ular nafaqat iqtisodiyotning barqaror o'sishiga hissa qo'shadi, balki moliya bozorlari uchun zaruriy barqarorlik va likvidlikni ham ta'minlaydi.

Jami, institutsional investorlar iqtisodiy o'sishning strategik drayverlari bo'lib, ularning moliya bozorlaridagi o'rni kelajakda ham ortib borishi kutilmoqda.

Institutsional investorlar ko'pincha texnik tahlil va fundamental tahlildan foydalanishadi. Ular o'z portfellarini shakllantirar ekan, moliya bozorlari, kompaniyalar va iqtisodiy shartlarni tahlil qilib, uzoq muddatli strategiyalarga muvofiq qarorlar qabul qilishadi. Bu strategiyalar o'zgaruvchan bozorlarda muhim rol o'ynaydi va investorlar uchun qo'shimcha foyda keltiradi. Masalan, katta hedge fondlar va pensiya fondlari diversifikatsiyalangan portfellarga ega bo'lishadi, bu ularning qarzlari va aksiyalar bozorlaridagi harakatlarga nisbatan muhim ta'sir ko'rsatishini ta'minlaydi.

Institutsional investorlar moliya bozorlarida likvidlikning asosiy manbai sifatida faoliyat ko'rsatadi. Ular ko'pincha katta hajmdagi transaksiyalar amalga oshiradi, bu esa bozordagi narxlarning barqarorligini ta'minlaydi[13]. Likvidlik, ya'ni aktivlarning tez va samarali sotilishi bozorning samaradorligini oshiradi, shu bilan birga bozorning jozibadorligini kuchaytiradi. Shuningdek, institutsional investorlar o'zining strategiyalari orqali iqtisodiy va moliyaviy o'zgarishlarga moslashishga yordam beradi.

Institutsional investorlar moliya bozorlaridagi muhim rolni, likvidlik va barqarorlikni saqlashni ta'minlaydigan shaxslar sifatida izohlash mumkin. Ular o'zining strategik maqsadlariga erishish uchun turli xil investitsiya strategiyalarini amalga oshirishga qodir.

Institutsional investorlar moliya bozorlarida muhim rol o'ynaydi, chunki ularning strategiyalari va kapital ishlatish uslublari bozordagi barqarorlik va likvidlikni ta'minlashga yordam beradi. Institutsional investorlar, odatda, katta mablag'lar va uzoq muddatli strategiyalarga ega bo'lib, ularning qarorlari ko'pincha jahon moliya bozorlaridagi tendensiyalarni shakllantiradi[13]. Bu investorlar diversifikatsiyalangan portfellar orqali riskdan himoya qilish va kapitalni yuqori daromadlar olish uchun foydalanadilar. Ular bozorlardagi likvidlikni saqlash va narxlarning aniq va to'g'ri bo'lishiga yo'l ochishga yordam beradilar.

Institutsional investorlar moliya bozorlarida likvidlikni ta'minlashga katta ta'sir ko'rsatadi. Ular katta miqdordagi mablag'larni birja va boshqa aktivlarga

sarmoya kiritishadi, bu esa bozordagi aksiyalar va obligatsiyalarga talabni barqarorlashtiradi. Bu esa o'z navbatida, aktivlarni tezkor va osonlik bilan sotib olish va sotish imkonini yaratadi. Masalan, katta pensiya fondlari va investitsion kompaniyalar katta hajmdagi aksiyalar yoki obligatsiyalarini amalga oshirishda bozordagi likvidlikni ta'minlaydilar.

Strategik qarorlar va risklarni boshqarishdagi rolga qarab institutsional investorlar risqlarning aniq taqsimlanishi va foyda olish maqsadida to'g'ri investitsiyalarni tanlashda ishonchli qarorlar qabul qilishga intilishadi. Ular bozordagi o'zaro ta'sirlarni va iqtisodiy sharoitlarni tahlil qilib, turli xil aktivlarga sarmoya kiritadilar. Ushbu strategiyalar portfelning barqarorligini ta'minlash, riskni minimallashtirish va daromadni yuqori olishga ko'maklashadi.

Institutsional investorlar, ayniqsa, katta pensiya fondlari, hedge fondlari va ishonch kompaniyalari, diversifikatsiyalangan strategiyalarga ega bo'lishadi. Bu strategiyalar riskni minimallashtirish va diversifikatsiya orqali daromadni oshirishga yordam beradi. Masalan, hedge fondlari ko'pincha ko'p turdagi aktivlarga investitsiya qiladi, shuningdek, moliyaviy produktlarni (aksiya, obligatsiyalar, derivativlar) har xil usullar bilan to'g'ri ravishda yo'naltiradi.

Institutsional investorlar moliya bozorlaridagi makroiqtisodiy tendensiyalar va global sharoitlarga javob berishda muhim rol o'ynashadi. Ular jahon iqtisodiyotidagi o'zgarishlarga tezkor va aniq javob beradi, bu esa ularning savdo qarorlarini samarali qabul qilishga yordam beradi.

Institutsional investorlar moliya bozorlarida katta va muhim o'rin tutadi. Institutsional investorlarning investitsiya strategiyalari, portfellarni diversifikatsiyalash, likvidlikni ta'minlash va risqlarni boshqarish orqali ular bozorda barqarorlik va samaradorlikni ta'minlaydi.

Tadqiqotlar xorijiy aksiyadorlik jamiyatlari moliyasining xususiyatlari va moliyaviy innovatsiyalar ularning ahamiyati bilan bog'liqdir. Moliyaviy innovatsiyalar xorijiy aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy barqarorligi va samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega ekanligi ko'rsatdi.

AQSh aksiyadorlik jamiyatlari moliyaviy bozorda innovatsion yondashuvlari va samarali kapital boshqaruvi bilan yetakchi o'rinni egallaydi. Ular yangi moliyaviy instrumentlar, jumladan, obligatsiyalar, aksiyalarning turli turlari va derivativlarni amalda keng qo'llaydilar. Bunday innovatsion yondashuvlar AQShning moliyaviy bozorlarini global raqobatda ustun qilib kelmoqda.

Yangi moliyaviy instrumentlar, jumladan, obligatsiyalar, aksiyalar va derivativlar, moliyaviy bozorlardagi samaradorlikni oshirishda muhim rol o'ynaydi. Ular kompaniyalarga kapitalni jalb qilish, riskni boshqarish va investorlarga diversifikatsiya qilish imkonini beradi. Shuningdek, derivativlar, masalan, fyucherslar va opsiyonlar, kompaniyalarga narxlarning o'zgarishlaridan kelib

chiqadigan risklarni boshqarish imkonini beradi. Bularning barchasi moliyaviy bozorlarda dinamik o'sish va global raqobatbardoshlikni ta'minlashda muhim vositadir:

- Obligatsiyalar va aksiyalar. AQSh kompaniyalari moliyaviy resurslarni jalb qilish uchun turli xil obligatsiyalar va aksiyalarni chiqarishadi. Masalan, "preferred stock" (afzallikka ega aksiyalar) va "convertible bonds" (ayrboshlash mumkin bo'lgan obligatsiyalar) kapital bozorida diversifikatsiyani ta'minlashda foydalaniladi.

- Derivativlar. Kompaniyalar valyuta kurslari, foiz stavkalari va tovar narxlaridagi xavflarni boshqarish uchun derivativ vositalardan, masalan, fyucherslar va opsionlardan foydalanadilar. Ular kapital bozordagi barqarorlikni saqlash va riskni kamaytirish imkonini beradi.

Innovatsion moliyaviy strategiyalar, ayniqsa AQShda, moliyaviy bozorlarning samaradorligini oshirish va global raqobatbardoshlikni ta'minlash uchun muhim vositadir. Bu strategiyalar orasida IPO (birlamchi aksiyalar chiqarilishi), aksiyalarni qayta sotib olish va venchur kapitalga sarmoya kiritish kabi amaliyotlar joy oladi. Masalan, texnologik kompaniyalar IPO orqali katta mablag'larni jalb qilishadi, bu ularga innovatsion loyihalarni rivojlantirish va bozordagi pozitsiyasini mustahkamlashga yordam beradi. Shuningdek, aksiyalarni qayta sotib olish (stock buybacks) kompaniyalarning aksiya narxini oshirishga va investorlar uchun qo'shimcha manfaatlar yaratishga yordam beradi. Venchur kapital esa yangi startaplarni moliyalashtirishda muhim rol o'ynaydi, bu esa iqtisodiy rivojlanishga sabab bo'ladi:

- IPO (Birlamchi aksiyalar chiqarilishi). Texnologik kompaniyalar IPO orqali juda katta mablag' jalb qiladilar. Masalan, Apple, Google, va Amazon kabi kompaniyalar o'z IPO jarayonlari orqali milliardlab dollar sarmoyani jamg'argan. Bu mablag'lar kompaniyaning innovatsion loyihalarini rivojlantirish va bozorda o'z pozitsiyasini mustahkamlashga yo'naltirilgan.

- Aksiyalarni qayta sotib olish (Stock Buyback). Ko'plab yirik korporatsiyalar, masalan, Microsoft va Apple, aksiyalarni qayta sotib olish amaliyotini qo'llaydilar. Bu bozorda aksiya narxini yuqori darajada ushlab turish va investorlarni qo'llab-quvvatlashning samarali usulidir.

- Venchur kapital va startaplarni qo'llab-quvvatlash. AQSh moliyaviy strategiyalari innovatsion startaplarni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan. Masalan, venchur kapital jamg'armalari Tesla, Uber, va Airbnb kabi kompaniyalarning rivojlanishiga katta hissa qo'shgan. Bunday yondashuvlar innovatsiyalarning iqtisodiyotdagi ulushini oshiradi.

- SPAC (Special Purpose Acquisition Companies). Bo'lajak IPO jarayonlarini tezlashtirish uchun AQShda SPAClar keng qo'llaniladi. Bu kompaniyalar bozorda likvidlikni ta'minlash va xususiy kompaniyalarni ommaviylashtirish imkonini beruvchi samarali vositadir.

2- jadval

AQSh aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan yangi moliyaviy instrumentlardan foydalanishning statistik ma'lumotlari[3]

Yil	IPO orqali jalb qilingan mablag' (mlrd. dollar)	Derivativlar bozori ulushi (%)	Qayta sotib olingan aksiyalar qiymati (mlrd. dollar)
2019	56.2	38	729.2
2020	168.0	40	757.0
2021	332.2	42	850.0
2022	97.2	41	770.5
2023	123.9	43	800.3

2-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, AQSh aksiyadorlik jamiyatlari moliyaviy bozorda innovatsion strategiyalarni tatbiq qilishda yetakchi o'rin tutadi. Ularning moliyaviy rejalashtirishdagi asosiy jihatlaridan biri IPO (ilk ommaviy taklif) orqali katta mablag' jalb qilishdir. So'nggi yillarda, xususan, 2021 yilda IPO orqali jalb qilingan mablag' rekord darajaga yetgan. Bu texnologik kompaniyalarning bozordagi ulushi oshgani bilan bog'liq. Masalan, Rivian va Robinhood kabi yirik kompaniyalar o'sha yili IPO orqali katta mablag' jalb qilgan.

Derivativlar bozoridagi rivojlanish ham AQSh kompaniyalari moliyaviy strategiyasining muhim qismi hisoblanadi. 2019-yildan 2023-yilgacha derivativlar bozori ulushi muttasil o'sib, 43%ga yetgan. Bu moliyaviy xavflarni boshqarishda innovatsion vositalardan samarali foydalanishga bo'lgan ehtiyojning ortib borishini ko'rsatadi. Xususan, derivativlardan samarali foydalanish orqali aktivlarning qiymatini saqlash yoki oshirishga erishilgan.

Bundan tashqari, AQSh kompaniyalari aksiyalarni qayta sotib olish strategiyasini faol qo'llab kelmoqda. Masalan, Apple va Microsoft kabi korporatsiyalar o'z aksiyalarini qayta sotib olish orqali bozordagi ishonchni mustahkamlamoqda. Bu jarayon, ayniqsa, so'nggi besh yilda investitsion muhitni barqarorlashtirish va aksiya narxini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etdi.

AQShdagi aksiyadorlik jamiyatlari moliyaviy strategiyalaridagi innovatsiyalar global moliyaviy bozorda ularning raqobatdoshligini saqlashda va rivojlanishda muhim rol o'ynaydi. Yangi moliyaviy instrumentlar, jumladan obligatsiyalar, aylantirilgan aksiyalar, va derivativlar, korporatsiyalarga kapitalni

samarali boshqarish va riskini kamaytirish imkonini beradi. IPO strategiyalari esa kompaniyalarga katta sarmoyalar jalb qilish imkonini yaratadi, bu esa ularning innovatsion loyihalarini moliyalashtirish va raqobatbardoshligini mustahkamlashga yordam beradi.

Venchur kapitalga asoslangan strategiyalar esa yangi va innovatsion startaplarni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan bo'lib, ularning rivojlanishi global iqtisodiyotning yangi texnologiyalarga bo'lgan talabini qondirishda muhim ahamiyatga ega. AQSh kompaniyalarining bugungi kundagi moliyaviy strategiyalari, ularning innovatsion yondoshuvlari va yangi moliyaviy instrumentlardan foydalanishlari nafaqat ichki bozorda, balki xalqaro miqyosda ham ulkan ta'sirga ega. Ushbu mexanizmlar boshqa mamlakatlardagi kompaniyalar uchun ham o'rnak bo'lib, ularning iqtisodiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi.

Xulosa va takliflar

Shu bilan birga, AQSh kompaniyalari moliyaviy strategiyalaridagi innovatsiyalar va xalqaro bozordagi raqobatga moslashish qobiliyati ularni dunyo bo'yicha yetakchi moliyaviy institutlarga aylantiradi hamda xalqaro moliyaviy bozorda innovatsion strategiyalarni qo'llash orqali yetakchi o'rinni saqlab qolishga intiladi. IPO, derivativlar va aksiyalarni qayta sotib olish kabi vositalardan samarali foydalanish ushbu maqsadga erishishning asosiy omili bo'lib xizmat qilmoqda. Bu strategiyalar AQSh moliyaviy bozorining dunyodagi nufuzini yanada oshirishga yordam berib, global iqtisodiyotda innovatsiyalar va raqobatbardoshlikni oshirishda muhim o'rin tutadi. Ular nafaqat ichki, balki xalqaro sarmoyalarni jalb qilish imkonini beradi. Masalan, AQSh kompaniyalari tomonidan chiqarilgan derivativlarning umumiy qiymati jahon derivativ bozorining 40%ini tashkil etadi.

Umuman olganda, AQSh aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy bozorlardagi yetakchiligi va innovatsion strategiyalari global moliyaviy mexanizmlarni takomillashtirishga yordam beradi. AQShning IPO, derivativlar va ventchur kapital kabi mexanizmlari butun dunyo uchun ilg'or tajriba hisoblanadi va boshqa mamlakatlar kompaniyalari uchun namuna bo'lib xizmat qiladi.

Shu jumladan, rivojlangan mamlakatlar tajribasi O'zbekiston uchun ham aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy barqarorligi va ishonchliligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega bo'lib, ularning global iqtisodiy integratsiya jarayonlarida o'z o'rnini mustahkamlashga yordam beradi. Qonunchilik va tartibga solish tizimini takomillashtirish, investorlar huquqlarini himoya qilish va shaffoflikni ta'minlash orqali O'zbekistondagi aksiyadorlik jamiyatlari xalqaro miqyosda raqobatbardoshlikni oshirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shuningdek, audit va nazorat tizimini kuchaytirish, iqtisodiy integratsiya va diversifikatsiyani rivojlantirish orqali

aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy barqarorligi va ishonchliligini ta'minlash mumkin. Bu esa, o'z navbatida, O'zbekistonning global iqtisodiy integratsiya jarayonlaridagi o'rnini mustahkamlashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Garvard universiteti tadqiqotlari: Digital Economy and Corporate Finance, 2021.u2
2. Michael C. Jensen, William H. Meckling. Theory of the Firm: Managerial Behavior, Agency Costs, and Ownership Structure // Journal of Financial Economics, 1974, Elsevier, Volume: 3, Issue 4., 305–360
3. Bond Market Report 2024 (Global Edition) // <https://www.cognitivemarketresearch.com/bond-market-report>
4. Robert J. Shiller. Irrational Exuberance. Princeton University Press, 2018
5. George A. Akerlof. The Market for Lemons: Quality Uncertainty and the Market Mechanism. // Quarterly Journal of Economics, 1970, 84(3), 488-500.
6. Graham, B., & Dodd, D. L. (2008). Security Analysis: Sixth Edition. McGraw-Hill Education.
7. Bogle, J. C. (2005). The Little Book of Common Sense Investing. Wiley.
8. Clayton M. Christensen. The Innovator's Dilemma: When New Technologies Cause Great Firms to Fail. Harvard Business Review Press 1997 yil. ISBN: 978-1633691780
9. Keynes J.M. The General Theory of Employment, Interest, and Money. Palgrave Macmillan, 2007
10. Jensen, M. C., & Meckling, W. H. (1976). Theory of the firm: Managerial behavior, agency costs, and ownership structure. Journal of Financial Economics, 3(4), 305-360. Publisher: Elsevier, DOI: [https://doi.org/10.1016/0304-405X\(76\)90026-X](https://doi.org/10.1016/0304-405X(76)90026-X)
11. Bond Market Report 2024 (Global Edition) // <https://www.cognitivemarketresearch.com/bond-market-report>
12. CFA Institute (2022). Global Market Report: Institutional Investors' Impact on Capital Markets. Available at: cfainstitute.org
13. BlackRock, Inc. (2023). Investment Insights Report. Available online at: blackrock.com